

Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2026-yil yanvar-oyi uchun

- I. Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1-fevral holatiga ko'ra Viloyatda 3049 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 757 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 24,8 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 682 tasi (22,4 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 275 tasi (9,0 %) mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga, 217 tasi (7,1 %) mebel ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-fevral holatiga ko'ra



II. Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar oylarida viloyat korxonalari tomonidan 1 059,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,9 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Surxondaryo viloyati	1 059,8	108,9
Termiz shahri	100,9	116,4
<i>tumanlar:</i>		
Angor tumani	47,2	108,1
Bandixon tumani	38,3	121,6
Boysun tumani	17,4	108,7
Denov tumani	120,0	108,6
Jarqo'rg'on tumani	110,6	112,1
Qumqo'rg'on tumani	14,7	109,8
Qiziriq tumani	116,2	113,1
Muzrabot tumani	37,0	108,3
Oltinsoy tumani	24,2	109,1
Sariosiyo tumani	53,9	108,4
Termiz tumani	24,2	115,4
Uzun tumani	27,8	108,7
Sherobod tumani	91,4	113,6
Sho'rchi tumani	68,4	109,7

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz shaharda (479,9 ming so'm), Jarqo'rg'on tumanida (448,8 ming so'm), Bandixon tumanida (443,0 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (355,9 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, Bandixon tumanida (118,4 %) Termiz shaharda (113,2 %), Termiz tumanida (112,2 %), Qumqo'rg'on tumanida (110,6 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-oyida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar oyida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 954,7 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (90,0 %) ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 28,5 mlrd so'm (2,7 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 47,3 mlrd so'm (4,5 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 29,3 mlrd so'm (2,8 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar oyida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar oyida viloyatda boshqa paxta chigiti- 4 964,4 t (2,4 m. ga) , 28 900,0 ming tonna portlandtsemen (2,0 m ga), shuningdek 4,6 ming tonna xom neft (uglevodorodlarning tabiiy aralashmasi), bitumsimon jinslardan olingan neft-ming t (17,5 % ga), qattiq holdagi tuz va toza natriy xlorid (osh tuzidan tashqari) t (8,5 m ga) kamaygan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar *	2025-yil yanvar *	2026-yil yanvar
Aroq, ming litr	10,602	-	-
Qoramollar uchun tayyor ozuqa, tonna	1721	3033,0	3690
Paxta tolasidan yigirilgan ip, tonna	1976,3	2038,1	2090,0
Neft bitumi, ming t	0,04	3,1	1,8
Tabiiy qumlar, ming t	2,7	0,0	1,6
Toshko'mir, ming t	24,9	37,2	6,1
Xom neft, ming t	6,5	5,6	4,6
Boshqa paxta chigiti, ming t	1,7	2,0	4,9
Kepak, ming t	0,9	1,8	2,7
Portlandsement, ming t	54,8	14,2	28,9

**2024-2025-yillarning yanvar oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 28,1 % (2025-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 104,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 39,0 % (2025-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 113,5 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2025-yilning yanvar oyida 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 5,0 % (0,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 13,7 % (24,6 %), quyi texnologiyali 80,6 % (74,4 %) ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 131,8 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 91,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024 yil yanvar *	2025-yil yanvar *	2026-yil yanvar
Elektrenergiya, mln.kvt.s	19,9	25,2	33,3

Issiqlik energiyasi, ming gkal	2,02	2,1	1,9
-----------------------------------	------	-----	-----

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 8,7 m. ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlarida 1.3 m. ga ko'paydi

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar *	2025-yil yanvar *	2026-yil yanvar
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	0,6	0,5	2,9
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	5,7	7,0	15,7
Xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	1,3	1,9	3,7

**2024-2025-yillarning yanvar oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 656,8 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 62,0 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar oyida kichik biznes sub'ektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 37,8 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Surxondaryo viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
J. Mallayev
76 225-65-76 (7510)

Manzil:

